

INGLIZ TILIDAGI FRAZEOLOGIZMLARDA ZONIMLAR VA ULARNING INSON FE'L-  
ATVORIGA MUQOYASASI

Ibragimova So'g'diyona

Termiz Davlat Universiteti talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ingliz tili frazeologik birliklarida inson xarakteri zoonimlar vositasida berilishi tasvirlangan hamda misollar orqali tushuntirilgan. Bunda ingliz mentalitetining o'ziga xosliklari va xarakter xususiyatlari frazeologik birliklarda ifodalanishi bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** frazeologik birlik, zoonim, emotsionallik, bo'yoqdorlik, so'z, modal munosabat, obrazlilik, subyektiv munosabat.

Tilning frazeologik ko'lami insoniyatning necha asrlik bilim, tajriba va madaniyati asosida boyib, kengayib boradi. Frazeologik birliklarning paydo bo'lishi va rivojlanishi xalqning madaniyati, dunyoqarashi, urf-odatlarini, kasbi, turmush tarzi hamda voqelikka munosabati bilan uzviy ravishda bog'liqdir. Shu o'rinda, hayvonlarning nomlanishi ya'ni zoonimlar ham dunyodagi barcha tillar so'z boyligining tarixiy va etnik qatlamiga mansub. Kishilar his tuyg'ularini, axloq-odobini, tashqi ko'rinishini, holatini jonzotlarga o'xshatish va taqqoslash yo'llari bilan tasvirlab berishadi. Frazeologizmlarning ichki mazmuni shundan iboratki, turli-tuman odamlarning hayot va xarakterlarini yoritib beradi. Yaxshilik yoki yomonlikni, muvaffaqiyat yoki omadsizlikni, ularning hayotiy taassurotlari va his-tuyg'ularini, do'stona munosabatlar, urush-janjallar, odamlar o'rtasidagi raqobat, makkorlik, jazo tayinlash.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, hayvonlar nomlari bilan kelgan frazeologik birliklarning o'ziga xosligi, emotsionallikni ifodalashiga ko'ra quyidagilarni kuzatish mumkin:

1. Jahl va yomon kayfiyatni ifodalovchi frazeologik birliklar. Behave like a bear-jahli chiqish; have bats in the belfry- qahr bilan munosabatda bo'lish; like a red flag to a bull- g'azablanish; bear with a sore head-yomon kayfiyatda bo'lish. Masalan: Don't mention Jack's promotion to Mike, it would be like a red flag to a bull. 2. Omadsizlik va tushkunlikni ifodalovchi frazeologik birliklar. Go to the dog- Ilgarigi foyda va omadga ega bo'lmaslik; get someone's goat- biror nimadan xafa bo'lish. Masalan: I wish he'd relax, he's got ant's in his pants about something today. 3. Baxtlilik va yuqori kayfiyatni ifodalovchi frazeologik birliklar. Like a dog with two tails- o'ta xursand bo'lish; top dog- boshqalarga nisbatan ustunlikka ega bo'lish; love me, love my dog- kamchiliklarga qaramasdan biror kimni sevish; grin like a Cheshire cat- biror narsadan yayrab kulish. Masalan: I knew she had succeeded when I saw her with a grin like a Cheshire cat. 4. Biror ishni tezlik bilan amalga oshirish. In two shakes of a lamb's tail- juda tez amalga oshgan ish; like a bat out of hell- katta kuch bilan amalga oshgan ish. Masalan: Iran like a bat out of hell to catch the bus. 5. Qo'rquv va xavotirni aks

ettiruvchi frazeologik birliklar. As nervous as a cat- o'ta havotirlanish. 6. Aqllilik va odobni ifodalovchi frazeologik birliklar. As gentle as a lamb- o'ta yumshoq; as sly as a fox- ishbilarmon, dono. Masalan: If you are too careful and polite, you may not get what you want. 7. Kasallik va jismoniy charchoqni bildiruvchi frazeologik birliklar. As sick as a dog- og'ir kasallik bo'lish; as weak as a kitten- nimjon, kasalmand bo'lish.

Frazeologik birliklarning so'zlardan asosiy farqi, ular obyektiv reallikni, ma'lum voqea-hodisani nomlash uchun emas, balki unga nisbatan modal munosabatni ifodalash maqsadida yuzaga keladi. Tildagi frazeologik birliklarning asosiy qismi ma'no jihatdan insonga qaratilgan. Ular kishilarning biror jismoniy, ruhiy, aqliy-intellektual xususiyatini, xatti-harakatini ifodalaydi. Frazeologik birliklardagi emotsionallik ularning turli his-tuyg'ulari, shaxs-predmetlarga nisbatan subyektiv munosabatlarini ifodalash bilan bog'liqdir. Frazeologik birliklardagi emotsionallik bir vaqtning o'zida ikki ma'noning reallashuvi va obrazlilik natijasida yuzaga chiqadi. [Salimova 2015, 214-215].

Bu nuqtayi nazarni quyidagicha tahlil qilish mumkin:

1. Ehtiyotsizlik va ehtiyotkorlik. Masalan, „ It is ill to waken sleeping dogs- uxlab yotgan kuchukni uyg'otib bo'lmaydi".

2. Hayotiy tajriba. Masalan, „ A good dog deserves a good bone- yaxshi kuchuk yaxshi suyakka loyiq".

3. Mehnatsevarlik. Masalan, „ The dog that trots about finds a bone- izlagan kuchuk, suyak topar.

4. Qaysarlik. Masalan, „ To flog a dead horse- o'lgan otni savalash"

5. Munofiqlik. Masalan, „ A wolf in sheep's clothing- eshak terisidagi bo'ri".

Ko'rinib turibdiki, yuqoridagi barcha birikmalarda ingliz milliy fe'l atvorini o'ziga xosligi aks etib turadi. Ushbu tasniflash hayvonlar nomlarida qo'llaniluvchi iboralarni o'rganishga oid va ayrim muloqotga oid iboralarga moslashtirilgan. Har bir frazeologik birlik ko'p ma'noda qo'llanilishi mumkin. Shuning uchun ular bir vaqtning o'zida turli insonlarni fe'l-atvorini yoritib berishi mumkin. Masalan, „ All lay loads on a willing horse- barcha yuk halol otning yelkasiga yuklangan". Ushbu birlikda ham mehnatsevarlik, ham surbetlik ifodalangan. Berilgan frazeologik birliklarning barchasi ingliz xalqingining o'ziga xos mentaliteti va fe'l-atvori borligini aks ettirib turadi. O'rganishlar natijasiga ko'ra, ustun bo'lgan xarakter xususiyatlari ehtiyotkorlik va ogohlik hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, har bir xalqning asrlar davomida shakllangan tildagi frazeologik birliklarida o'sha xalqning xususiyatlari, xarakterining nozik jihatlari tasvirlanadi. Hayvonlar orqali xarakter jihatlari ochib berish esa bo'yoqdorlik va ma'noni yanada tushunarli bo'lishiga xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. -М.. Советская энциклопедия, 1969. -312
2. Иваннокова Е.А. Синонимические отношения между фразеологическими единицами и словами, 1966. - 66-95
3. Salimova B. Ingliz tilida hayvon nomlarining qo'llanilishi bilan kelgan birliklarning qo'llanilishiga doir/ Замонавий филология ва лингводидактика масалалари. Самарканд: 2015. - 214-215